

**ARAB TILI O'QUV JARAYONIDA XALQ ERTAKLARI ORQALI
MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.**

Tadqiqotchi: Mamatmusayev Nosir

Yangi Asr Universiteti

+998938422612

Annotation: *This research explores the spiritual-educational and linguistic significance of using folk tales in the process of teaching the Arabic language. The study demonstrates that ancient Arab folk tales serve as an effective tool for developing students' reading comprehension, critical thinking, vocabulary enrichment, strengthening grammatical skills, and improving speech culture. The educational aspects of folk tales — such as promoting kindness, honesty, courage, justice, and diligence — are also analyzed.*

The work examines the didactic potential of folk tales, methods of integrating them into lessons, creating exercises based on texts, expanding vocabulary, and developing language skills. The results of the research have practical value for Arabic language teachers, students, methodologists, and educational institutions, providing an additional resource for teaching Arabic through modern and engaging methods.

Keywords: *Arabic language teaching, folk tales, reading comprehension, text analysis, spiritual-educational upbringing, linguistic competence, vocabulary development, oral folklore, didactic materials, teaching methods, speech skills, Arabic folklore, learning process, tale-based instruction.*

Аннотация: *Данное научное исследование раскрывает духовно-просветительское и лингвистическое значение использования народных сказок в процессе преподавания арабского языка. В работе обосновано, что древние арабские народные сказки являются эффективным средством развития у студентов навыков чтения с пониманием, критического мышления, расширения словарного запаса, укрепления грамматических знаний и совершенствования речевой культуры. Также анализируются воспитательные функции сказок — такие как формирование доброты, честности, мужества, справедливости и трудолюбия.*

В исследовании рассматриваются дидактические возможности сказок, методы их интеграции в учебный процесс, составление упражнений на основе текста, расширение словарного запаса и развитие языковых навыков. Полученные результаты представляют практическую ценность для преподавателей арабского языка, студентов, методистов и образовательных учреждений, предлагая дополнительные ресурсы для преподавания арабского языка современными и интересными методами.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish arab tili o'qitish jarayonida xalq ertaklaridan foydalanishning ma'naviy-ma'rifiy va lingvistik ahamiyatini yoritadi. Tadqiqotda qadimiy arab халқ ertaklari talabalarining o'qib tushunish, fikrlash, so'z boyligini kengaytirish, grammatik ko'nikmalarini mustahkamlash hamda nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita ekani asoslab берилган. Shuningdek, ertak matnlarining tarbiyaviy jihatlari — ezgulik, halollik, jasorat, adolat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Ish davomida xalq ertaklarining didaktik imkoniyatlari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish metodlari, matn asosida mashqlar tuzish, lug'at boyligini oshirish hamda til ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan samarali usullar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari arab tili o'qituvchilari, talabalar, metodistlar va ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, arab tilini zamonaviy va qiziqarli metodlar asosida o'rgatishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Arab tili ta'limi, xalq ertaklari, o'qib tushunish ko'nikmasi, matn bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, lingvistik kompetensiya, so'z boyligini rivojlantirish, xalq og'zaki ijodi, didaktik materiallar, ta'lim metodlari, nutq ko'nikmalari, arab folklori, o'quv jarayoni, ertak matni asosida dars.

Arab tilini o'qitish jarayonida qo'shimcha darslik sifatida arab xalq ertaklari va masallaridan foydalanish talabalarda o'qish, yozish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda har tomonlama foydali sanaladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham talabalar iste'dodi va til ko'nikmalarini rivojlantirishra xizmat qilishi, shuningdek ularning arab tilini mukammal o'zlashtirishlariga yordam berishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Talabalarga arab tilini o'rgatishda ertak va xalq masallarining afzalliklarini sanab o'tishdan avval, bilim olish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlash muhimdir. Bugungi kunda talabalar internet orqali chet tillarini, jumladan arab tilini ham hech qanday to'siqsiz mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatiga egadirlar. Shuningdek, o'qituvchilar dars jarayonini yanada samarali qilish uchun sodda, qiziqarli va interfaol usullardan foydalanishlari mumkin.

Eski arab xalq ertaklari va hikoyalari o'qitish talabalarining arab tilini tez va oson o'zlashtirishlariga katta yordam beradi. Bu usul dunyoning ko'plab nufuzli ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazilib, yuqori natijalar bergani bilan tasdiqlangan. Ertaklar nafaqat qiziqarli adabiy material, balki kuchli didaktik vosita ham sanaladi.

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish madaniy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli til o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi. Arab xalq ertak va hikoyalari esa talabalarga so'z boyligini boyitish, grammatik ko'nikmalarni mustahkamlash va arab tilining turli uslublarini

o'zlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Chet tilini o'qitishda ertaklardan foydalanish nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki talabalarning analitik fikrlashini, tasavvurini va madaniy tushunchalarini ham boyitadi.

Bu uslub talabalarni tabiiy til muhiti bilan tanishtirib, o'qish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va mazmunli qiladi.

لا يمكن أن تكون الحكايات الخرافية مادة أدبية مثيرة للاهتمام فحسب، ولكنها أيضًا أداة تعليمية قوية. في العالم الحديث، حيث تتزايد باستمرار أهمية معرفة اللغات الأجنبية ثقافيًا واقتصاديًا، هناك طلب خاص على الأساليب الفعالة لتعليمها. تمتص الحكايات الخيالية اللغة بنشاط وتثري المفردات واللغة

لديه الفرصة لخلق مساحة للتنمية. إن استخدام القصص الخيالية في تدريس اللغة الأجنبية لا يؤدي إلى تحسين المهارات اللغوية فحسب، بل يعمل أيضًا على تطوير التفكير التحليلي والخيال والفهم الثقافي. تساعد طريقة التدريس هذه الطلاب على دخول بيئة اللغة، وتجعل عملية التعلم أكثر تشويقًا وفعالية

1) Talabalarga eski arab xalq ertaklari, hikoya va masallarining muhim jihatlari.

Eski arab xalq ertaklari, hikoyalari va masallari talabalarga nafaqat arab tilini o'rganishda, balki ko'plab qo'shimcha ko'nikmalarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu manbalar orqali talaba til o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy tasavvurini ham boyitadi.

Dars jarayonida qisqa hikoyalardan foydalanish talabalarga real hayotiy voqealardan kelib chiqqan mazmun asosida mustaqil jumla tuzish ko'nikmasini shakllantiradi. Hikoya mazmunini gapirib berish jarayoni esa ularni mantiqiy fikrlashga, voqealar ketma-ketligini aniq bayon eta olishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, ertak va hikoyalardagi sodda va ravon uslub talabalarga arab tilida o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi. Bu jarayon davomida ular o'zlaridagi tortinchoqlik, hayajon yoki ikkilanib gapirish kabi holatlardan asta-sekin xalos bo'la boshlaydilar. Matnda uchraydigan yangi so'zlarni oson eslab qolishlari esa ularning lug'at boyligini sezilarli darajada oshiradi.

Eski arab xalq ertak va hikoyalarining afzalliklari:

1) Hikoya va ertaklarni o'qish va tarjima qilish jarayoni talaba qiyinchiliksiz umuminsoniylik haqiqatlarni, avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan jarayonlarni, hozirgi odob, mehribonlik, olijanoblik kabi yo'nalishlarda osonlik bilan arab tilida gapirib berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2) Talabalar o'qigan hikoya va hodisalardan to'plagan bilimlari asnosida ularda qiyinchiliksiz yangi g'oyalar haqida o'ylashlariga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga, ulardagi his tuyg'ulari va fikrlarini ifoda etishga katta yordam beradi va ular arab tilida o'z fikr mulohazalarini qiyinchiliksiz ifoda etib qapirib bera olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3) Talabalar hikoyalar orqali arablarning turli urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini ularni qo'lga kiritgan hayotiy tajribalarini bilib olish va shu bilan birga ularda arab tili nutq jaryoni tezlik bilan rivojlanib borishini osonlashtiradi.

4) Eski arab xalq ertak va hikoyalarining afzalliklaridan yana biri shundaki ba'zi asosiy lugatlarni doimiy ravishda takrorlanib kelishi va turli jumalarda berilgan muhim arabcha termin va iboralarni esda saqlash va daftarga yozib olishlari juda ham foydali hisoblanadi.

5) Grammatik qoidalarni o'qilayotgan matnda ochib berish orqali ularga grammatikani yengil, sodda uslublar orqali amaliy tushuntirib borish talabalarga katta yordam beradi va ularning eslarida doimiy saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

6) Talabada ijobiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakillantiradi va shu jarayonni arab tilida gapirib berish imkoniyatini yaratadi. Bu esa talabada o'z-o'zining fikriy doirasini rivojlantirish va kengaytirish ustida mashq qilish ko'nikmasini yaratadi.

Dars jarayonida qisqa ertak hikoya va turli qiziqarli matereallardan foydalanishning foydalali jihatlari:

Qisqa va ixcham ertak va nasriy hikoyalar romandan farqli ravishda, bitta voqeaga va markaziy mavzuga qaratilgan bo'lib, bitta bosh qahramonga va bir nechta kichik qahramonlarga ega bo'ladi. Shuning uchun qisqa ertak hikoyalardan foydalanish talabada arab tilida unda yoritilgan muhitni, uning asosiy elementlarini bilish, undagi voqea', qahramonlarni va undan umumiy xulosani to'g'ri chiqarishga yordam beradi. Bunda talabada hikoyalarni o'qib tushinishi jarayonida adabiy sana't darajasidagi tushunchalarni shakillantirishda yordam beradi va arab tilida o'zini qiziqtirgan ba'zi savollarni bera olish imkoniyatini paydo qiladi. Talaba ertak va hikoyalarni o'qishi unga qanday qilib dialoglarni boshlash va qanday uslub orqali hikoya qilish ko'nikmasini paydo qiladi. Talaba o'qigan hikoya va ertaklar haqida og'zaki gapirib berish orqali undagi, lug'at iboralarini, eski va yangi so'zlarni mustahkam o'zlashtirib olishiga, lingvistik va ifodali nutq bilan gapirib berish imkoniyatini yaxshilaydi.

Qisqa hikoya elementlari quyidagilardan iborat.

1) Joy yoki makon: Bu voqea sodir bo'lgan joy yoki makon. Masalan: o'rmonda, qishloqda, shaharda, saroyda, kosmik kemada yoki okean muhitida bo'lishi mumkin.

2) Vaqt: Hikoya sodir bo'lgan vaqt. U juda qadimiy davrda sodir bo'lgan yoki hozirgi vaqtda sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Balki yilning fasllaridan birida: bahor, yoz, kuz, qishda, yoki ma'lum bir yilda masalan 1991-yilda.

3) Qahramonlar: Ular hikoya va ertaklardagi asosiy elementlar bo'lib, hikoyadagi bosh qahramon va unda ishtirok etgan ikkinchi darajali shaxslarni o'z ichiga oladi. Ular odamlar, hayvonlar yoki boshqa narsalar bo'lishi mumkin.

4) Syujet: Bu voqealarning avji nuqtasi bo'lib, voqealar keskinlashib yoki pasayib borishi odatda bosh qahramon tamonidan hal qilinadi.

5) Yakun: O'qilgan hikoyalar yakunida undan umumiy xulosa chiqarish va tushunchalar qanday hosil qilish uslubini o'rganish.

6) Talaba ertak va hikoyani o'qib bo'lgach unda hikoya sodir bolgan joyi, davri vaqti, qahramonlari haqida o'z fikrini arab tilida yoritib bera olish ko'nikmasini hosil qiladi. Bu

bilan talaba hikoya va ertaklardagi voqealarni arab tilida oson iboralar bilan gapirib, tasvirlab bera oladi.

Qisqa hikoyalarni o'qitish mexanizmi va usullarining talabalarga foydalari:

Talabalar qisqa hikoyalardan foydalanishlari uchun mukammal usuli yo'q hisob. Ko'pchiligimizga yaxshi tanish bo'lgan usullardan biri bu o'qish, yozish, yangi lugat va keakli brikmalarni kichik daftarga yozdirib borish, kerakli so'zlarni yodlatib borishdan iborat. Talabalarni o'tgan matnlar davomida yodlab kelayotgan lug'atlardan foydalangan holda gap tuzib gapirishga o'rgatish turli qiziqarli savol-javoblar orqali talabalarni bir-birlari bilan muloqat qilishga o'rgatish kerak bo'ladi. Gapirish, eshitish, tushunish va qo'l harakatlari orqali mavzuni qanday gapirib berish usullarini o'rgatish va o'tilgan matnlar bo'yicha savol berish va ularni berilgan savolga qanday ijobiy javob berishga o'rgatish oson kechadi.

Chet tillarini ayniqsa arab tilini o'qitishda turli qiziqarli hikoyalar va qadimiy ertaklardan foydalanish hozirda eng oson zamonaviy usullardan biri desak xato bo'lmaydi. Qiziqarli hikoyalar va ertaklar boy lug'at va iboralar manbai bo'lib, unda keladigan lug'at va iboralarni talabalar tezlik bilan yod olib oladilar va ular ishtirokida gap tuzib foydalana olishlari oson kechadi. Ayniqsa ularning xotirasi kuchayadi, matnlarda o'tilgan voqealarga o'xshash vaziyatlarda qiynalmasdan oson iboralar yordamida yoritib bera oladilar. Arab tilini o'rgatishda hikoya, eski ertak va masallarning ahamiyati ko'plab sabablarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

1) Talabalar hikoya va eski arab xalq ertaklarini o'qish bilan undagi ma'lumotlarni birlashtirishga, yaxshiroq gapirishga va shu bilan talabada ko'proq o'ziga ishonch ortib borishiga yordam beradi.

2) Talabaning arab tilida ravon gapirishiga va og'zaki so'zlash qobiliyatini oshirishga va luga't ma'no-mazmunlarini esida saqlab qolishga katta yordam beradi.

3) Yangi lug'at va iboralarni tabiy ko'rinishda o'qib o'rganadi.

4) Ba'zi asosiy lug'atlarni doimiy ravishda takroralash orqali lug'atlarni yodlash jarayonini osonlashtiradi va tezroq eslab qolishlariga yordam beradi.

5) Hikoyalar, eski arab xalq ertak va masallari qiziqarli bo'lganligi uchun talabalarda arab tilini o'rganish jarayoni tezlashadi.

6) Grammatik qoidalarni matnda tushuntirib berish orqali ularni o'rganish jarayoni osonlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki arab tilini o'rgatishda hikoya va qadimgi arab xalq ertaklarining foydali jihatlarini bilganingizdan so'ng albatta yaxshi hikoya va qiziqarli arab xalq ertak, masallarini axtarishga tushasiz. Endilikda hozirgi zamonda internetning sehri tufayli siz o'zingiz istagan onlayn kitoblarga kirishingiz va sotib olishingiz mumkin. Kutubxonalar va veb saytlar turli mavzulardagi rang-barang juda

qiziqarli hikoya qadimiy arab xalq ertaklariga to'la, ularning barchasi arabcha va ba'zilari esa boshqa dunyo tillaridan arab tiliga tarjima qilingan. Ular jumladan:

Xayoliy hikoyalar, hayvonlar haqidagi hikoyalar, afsona va rivoyatlar, xalq ertaklari, sarguzashtli hikoyalar, ilmiy hikoyalar, realistik hikoyalar, hazil – mutoyiba hikoyalari va diniy hikoyalardir .

Ammo biz hikoya va eski arab xalq ertaklarini tanlashda quyidagi mezonlar va standartlarni hisobga olishimiz kerak:

1) Badiy standart: Hikoya ijodkorlik va ajoyib tasavvur bilan ajralib turishi kerak. Undagi voqea hodisalar o'ta qiziqarli, jozibali va zavqli bo'lishi kerak. Hozirda bularning juda ko'p variantlari mavjud. Biz esa ularning eng yaxshilarini tanlab olishimiz kerak bo'ladi.

2) Lingvistik miqyos: Hikoyalarni lingvistik darajasi talabalar yoshiga mos bo'lishi bilan bir qatorda uning intellektual, madaniy jihatlarni va insoniy qadriyatlarni ham o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

3) Miqdoriy o'lchov: Yozma satrlar va sahifalardagi hikoyalar hajmi talabanning arab tilidagi darajasi va ishlashiga mutanosib bo'lishi kerak.

4) Intellektual o'lchov: Hikoyalar talabanning intellektual darjasiga mos kelishi kerak. Chunki talabalar bir xil qobiliyatga ega emas. Shuning uchun ular tushunadigan oson hikoyalardan boshlash yaxshi foyda beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) <https://www.academia.edu/> Using folktales to develop reading skills for extracurricular education.

2) Iskanderova Sh.D. CHET TILINI O'QITISHDA MADANIY JIHATNING MUHIMLIGI VA UNI O'RGATISH USULLARI.//МИР КУЛЬТУРЫ: ИСКУССТВО, НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ.-2024/1/9.-88

3) <https://sinaps.uz/maqola/10252/>

4) <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/ertak-va-hikoya-o-qitish-metodikasi>

5) <https://www.google.com/> فوائد حكايات شعبية عربية

6) <https://arabicpost.net/opinions/>